

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA DARSLARNI INTEGRATSIYALASH
JARAYONINING O'QITUVCHI FAOLIYATINI
LOYIHALASHTIRISHNING VOSITALARI**

Shukurova Laziza Shokir qizi

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda darslarni integratsiyalash jarayonida o'qituvchi faoliyatini loyihalashtirishning zamonaviy vositalari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Pedagogik dizayn, raqamli ta'lim texnologiyalari, metodik ta'minot, baholash vositalari hamda interfaol metodlarning integratsiyalashgan ta'limni samarali tashkil etishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, o'qituvchi faoliyatini loyihalashtirishning didaktik, axborot-kommunikatsion va diagnostik vositalari tavsiflanib, ularning bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: integratsiyalashgan ta'lim, pedagogik dizayn, bo'lajak pedagog, o'qituvchi faoliyati.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida bo'lajak pedagoglarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv, fanlararo integratsiya hamda pedagogik dizayn tamoyillariga asoslangan darslarni loyihalashtirish zamonaviy o'qituvchidan yangi kasbiy kompetensiyalarni talab etadi. Bugungi kunda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini ilmiy asosda rejalashtiruvchi, tashkil etuvchi, boshqaruvchi va natijalarni tahlil qiluvchi pedagogik dizayner sifatida faoliyat yuritishi zarur.

Integratsiyalashgan darslar o'quvchilarda tizimli fikrlashni, muammolarni kompleks hal qilishni, ijodkorlikni hamda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday darslarni samarali tashkil etish esa o'qituvchi faoliyatini puxta loyihalashtirish va zamonaviy vositalardan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

O'qituvchi faoliyatini loyihalashtirish – bu ta'lim jarayonini oldindan puxta rejalashtirish, uning barcha tarkibiy qismlarini o'zaro uyg'unlashtirish hamda kutilayotgan ta'lim natijalariga erishishni ta'minlaydigan ilmiy-metodik jarayondir. Mazkur jarayonda o'qituvchi faqat dars ishlanmasini tayyorlash bilan cheklanmaydi, balki ta'limning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari, baholash mezonlari va refleksiya mexanizmlarini yagona pedagogik tizim sifatida loyihalashtiradi. Ayniqsa, darslarni integratsiyalash sharoitida loyihalashtirish fanlararo bog'liqlikni ta'minlash, o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

O'qituvchi faoliyatini loyihalashtirishning birinchi bosqichi o'quv ehtiyojlarini aniqlash hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, bilim darajasini, mavjud ko'nikma va malakalarini, qiziqishlari hamda ta'lim ehtiyojlarini tahlil qiladi. Diagnostik kuzatishlar, suhbatlar, so'rovnomalar, kirish testlari, monitoring natijalari va psixologik-pedagogik tahlillar orqali o'quvchilarning rivojlanish holati aniqlanadi. Olingan ma'lumotlar keyingi bosqichlarda ta'lim mazmunini tanlash, metodlarni belgilash va individual yondashuvni tashkil etishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Integratsiyalashgan darslarda esa bu bosqich o'quvchilarning turli fanlar bo'yicha mavjud bilimlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va ulardan yangi bilimlarni shakllantirish uchun tayanch sifatida foydalanishga imkon yaratadi.

Ikkinchi bosqich ta'lim maqsadlarini belgilashdan iborat. Bu bosqichda davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturi talablari hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida darsning umumiy va xususiy maqsadlari aniqlanadi[1]. Zamonaviy pedagogik dizaynda maqsadlar faqat bilim berishga emas, balki o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni, tanqidiy va ijodiy fikrlashni, kommunikativ kompetensiyalarni hamda muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Integratsiyalashgan darslarda maqsadlar bir nechta fan mazmunini yagona didaktik g'oya asosida birlashtiradi va o'quvchilarda yaxlit ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchi bosqich integratsiyalashgan mazmunni tanlash hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'qituvchi turli fanlarning o'zaro bog'liq mavzularini aniqlaydi, ularni yagona mantiqiy tizimga keltiradi va dars mazmunini shakllantiradi[4]. Mazmunni tanlashda fanlararo uzviylik, mavzularning dolzarbligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari hamda real hayot bilan bog'liqligi e'tiborga olinadi. Masalan, boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini o'qish savodxonligi, tasviriy san'at, tabiatshunoslik yoki matematika bilan integratsiyalash orqali o'quvchilarning bilimlari tizimli ravishda boyitiladi. Mazmunning integratsiyalashuvi o'quvchilarning bilimlarni alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida idrok etishiga yordam beradi.

To'rtinchi bosqich metod va vositalarni aniqlashdir. Ta'lim maqsadi va mazmuniga mos ravishda o'qituvchi o'quv faoliyatini tashkil etishning samarali metodlarini tanlaydi. Jumladan, muammoli ta'lim, loyiha metodi, "Aqliy hujum", "Keys-stadi", "INSERT", "Fishbone", "Klaster", "Konseptual xarita", "STEAM" elementlari kabi interfaol metodlardan foydalanish integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, metodlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan didaktik vositalar – texnologik xaritalar, elektron taqdimotlar, multimedia resurslari, videolavhalar, virtual laboratoriyalar, QR-kodli topshiriqlar, elektron darsliklar, tarqatma materiallar



va vizual modellar tanlanadi. Raqamli texnologiyalarni qo'llash ta'lim jarayonining interaktivligini kuchaytirib, o'quvchilarning mustaqil o'rganish faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi[6].

Beshinchi bosqich o'quv faoliyatini tashkil etish hisoblanadi. Bu bosqichda loyihalashtirilgan barcha elementlar amaliyotga tatbiq etiladi. O'qituvchi darsning kirish, asosiy va yakuniy qismlarini rejalashtiradi, individual, juftlik, kichik guruh va jamoaviy ishlash shakllarini uyg'unlashtiradi. Integratsiyalashgan darslarda o'quvchilar turli fanlardan olgan bilimlarini amaliy vazifalarni bajarish, loyihalar yaratish, tajribalar o'tkazish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida qo'llaydilar[7]. O'qituvchi esa ushbu jarayonda fasilitator, maslahatchi va ta'lim jarayonini boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Natijada o'quvchilar bilimni tayyor shaklda emas, balki faol izlanish va hamkorlik asosida egallaydilar.

Oltinchi bosqich natijalarni baholash va refleksiya iborat. Mazkur bosqich ta'lim jarayonining samaradorligini aniqlash hamda keyingi faoliyatni takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi[8]. Baholash jarayonida formativ va summativ baholash usullari, diagnostik testlar, kuzatuv varaqalari, rubrikalar, portfolio, o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash metodlari qo'llaniladi. Refleksiya esa o'quvchilar va o'qituvchiga o'z faoliyatini tahlil qilish, erishilgan natijalarni baholash, uchragan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash imkonini beradi. Integratsiyalashgan darslarda refleksiya o'quvchilarning fanlararo bog'lanishlarni qay darajada anglaganini, yangi kompetensiyalarni shakllantirganini hamda bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llay olishini aniqlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, o'qituvchi faoliyatini loyihalashtirish bosqichlari o'zaro uzviy bog'langan yagona pedagogik tizimni tashkil etadi. Har bir bosqich o'ziga xos pedagogik vositalar, metodlar va texnologiyalar orqali amalga oshiriladi hamda keyingi bosqichning muvaffaqiyatli tashkil etilishiga zamin yaratadi[9]. Ayniqsa, darslarni integratsiyalash sharoitida mazkur bosqichlarning izchil va ilmiy asosda rejalashtirilishi o'quv jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish hamda bo'lajak pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Didaktik vositalar integratsiyalashgan ta'limning mazmunini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ularga integratsiyalashgan o'quv dasturlari, texnologik xaritalar, dars ishlanmalari, kompetensiyaga yo'naltirilgan topshiriqlar, fanlararo loyihalar, muammoli vaziyatlar, konseptual xaritalar (Concept Map), klaster va intellektual xaritalar (Mind Map) kabilar kiradi[12]. Mazkur vositalar o'quv materiallarini tizimli tashkil etish, fanlararo bog'liqlikni ochib berish hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish imkonini yaratadi.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Pedagogik dizayn vositalari ta'lim jarayonini ilmiy asosda rejalashtirishni ta'minlaydi. Pedagogik dizayn vositalari darsning texnologik modeli, kompetensiyalar matritsasi, o'quv natijalari xaritasi, baholash mezonlari, refleksiya vositalari, ta'lim ssenariylarini o'z ichiga oladi. Pedagogik dizayn vositalari o'qituvchiga darsning barcha elementlarini yagona tizim asosida rejalashtirish imkonini beradi[11].

Raqamli texnologiyalar integratsiyalashgan ta'limni tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Jumladan multimedia taqdimotlari, virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar, videodarslar, animatsiyalar, QR-kodli topshiriqlar, bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalardir. Mazkur vositalar ta'limning ko'rgazmaliligini oshiradi, individual ta'limni qo'llab-quvvatlaydi hamda o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi.

O'qituvchi faoliyatini loyihalashtirishda baholash vositalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular diagnostik testlar, rubrikalar, kuzatuv varaqalari, elektron portfolio, formativ baholash, summativ baholash, o'z-o'zini baholash, o'zaro baholash, refleksiya kundaliklari. Mazkur vositalar ta'lim natijalarini aniqlash hamda dars sifatini takomillashtirish imkonini beradi[10].

Integratsiyalashgan ta'lim samaradorligi vositalarning alohida qo'llanilishiga emas, balki ularning o'zaro uyg'unlashuviga bog'liq. Masalan, pedagogik dizayn texnologik xarita orqali darsning tuzilishini belgilaydi, AKT vositalari mazmunni vizuallashtiradi, interfaol metodlar o'quvchilar faoliyatini faollashtiradi, baholash vositalari esa natijalarni aniqlaydi. Natijada ta'lim jarayoni yaxlit pedagogik tizim sifatida shakllanadi. Mazkur vositalardan tizimli foydalanish bo'lajak pedagoglarda pedagogik dizayn kompetensiyasi, metodik kompetensiya, axborot-kommunikatsion kompetensiya, refleksiv kompetensiya, tadqiqotchilik kompetensiyasi, kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish, innovatsion faoliyatni tashkil etish kompetensiyalarini shakllantiradi. Natijada bo'lajak o'qituvchilar zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan integratsiyalashgan darslarni mustaqil loyihalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Darslarni integratsiyalash jarayonida o'qituvchi faoliyatini loyihalashtirishning vositalari zamonaviy pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Didaktik, metodik, axborot-kommunikatsion, diagnostik va interfaol vositalarning kompleks qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantiradi hamda bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bois oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni mazkur vositalardan samarali foydalanishga o'rgatish, pedagogik dizayn asosida integratsiyalashgan darslarni loyihalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor metodik vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/11719>
2. Atenov J.D. The Concept of Methodological Preparedness of Future Teachers. International Multi Disciplinary Journal for Research&Development. ISSN 2394-6334 Impact factor: 8.854 Volume 13, issue 03(2026). Pg-393-397.
3. <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/5318>
4. Atenov J.D. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. 2026-yil 16-mart №(3)2-son. 170-173-betlar.
5. Ibroximovna, M. N. (2022). Ijodiy tafakkurda til, so'z va nutq birligi. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 636-641.
6. Ibroximovna, M. N. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy tafakkurini shakllantirishning ijtimoiy asoslari. Eurasian Journal of Academic Research, 5(10), 22-32.
7. Maktabgacha va Maktab Talimi Jurnali. (2022). STEAM pedagogikasi va pedagogik tayyorgarlik masalalari. Retrieved March 15, 2026, from <https://maktabgacha-va-maktab-talimiJurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/345>
8. Mamaraximova, N. (2022). Alisher Navoiy asarlarida nutq va tafakkur masalalari. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar, (4).
9. Mamaraximova, N. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq o'stirish orqali ijodiy tafakkurni shakllantirish. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar.